



**XIZMATLAR SOHASI  
STATISTIKA BO'LIMI**


**2023- YIL  
YANVAR-AVGUST**

***Dastlabki ma'lumotlar***

# Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari <sup>1)</sup>

(2019-2023- yillar yanvar-avgust)

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan


## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-avgust)

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati.</b>	<b>12035,0</b>	<b>100,0</b>	<b>107,9</b>
Shahar va tumanlar			
Qarshi shahar	3209,6	26,7	109,5
Shahrisabz shahar	602,3	5,0	110,8
G'uzor tumani	490,0	4,1	107,5
Dehqonobod tumani	385,3	3,2	106,9
Qamashi tumani	700,5	5,8	106,6
Qarshi tumani	795,1	6,5	107,4
Koson tumani	767,2	6,4	107,9
Kitob tumani	839,0	7,0	107,1
Mirishkor tumani	533,3	4,4	106,2
Muborak tumani	728,3	6,1	106,3
Nishon tumani	499,4	4,1	107,4
Kasbi tumani	524,1	4,4	107,4
Ko'kdala tumani	212,3	1,8	107,3
Chiroqchi tumani	486,8	4,0	105,8
Shahrisabz tumani	661,3	5,5	106,7
Yakkabog' tumani	600,5	5,0	108,9

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

# Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

(2022-2023- yillar yanvar-avgust)



**2023- yil yanvar-avgust** oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3439,5** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-avgust** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **105,6** % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar

(2023- yil yanvar-avgust)

Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati.	3439,5	105,6
Qarshi shahar	11037,2	107,0
Shahrisabz shahar	4142,7	109,0
G'uzor tumani	2243,8	105,1
Dehqonobod tumani	2454,2	104,9
Qamashi tumani	2430,5	104,3
Qarshi tumani	2978,9	105,0
Koson tumani	2504,6	105,3
Kitob tumani	3024,5	105,1
Mirishkor tumani	4189,2	104,1
Muborak tumani	7907,2	104,7
Nishon tumani	3054,7	105,1
Kasbi tumani	2504,1	105,1
Ko'kdala tumani	1150,5	103,5
Chiroqchi tumani	1856,8	103,5
Shahrisabz tumani	2854,0	105,1
Yakkabog' tumani	2160,1	106,6


## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-avgust)

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>12035,0</b>	<b>100,0</b>	<b>107,9</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	612,7	5,1	122,5
Moliyaviy xizmatlar	2093,8	17,4	110,2
Transport xizmatlari	2524,1	21,0	103,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2430,5	20,2	104,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	367,5	3,1	108,3
Savdo xizmatlari	3 731,3	31,0	103,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	302,0	2,5	106,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	498,8	4,1	141,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	175,4	1,5	107,9
Ijara xizmatlari	256,9	2,1	95,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	413,7	3,4	106,0
Shaxsiy xizmatlar	432,6	3,6	106,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	158,0	1,3	113,4
Boshqa xizmatlar	468,2	3,9	116,2

# Moliyaviy xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-avgust)




2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **2023-** yilning mos dav-rida moliyaviy xiz-matlar hajmi **1320,0** mlrd. so'mga oshib, **2093,8** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xiz-matlarning ulushi **17,4** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlar-ning o'sish sur'ati **110,2** % ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-avgust)

**2023-** yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **89,2** % ni tashkil etdi.




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **41,1** foizni yoki **861,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2022-** yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan Nishon tumanida yuqori o'sish sur'ati **122,2** % ni tashkil etdi.

# Transport xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-avgust)

**2023- yilning yanvar-avgust oylarida** transport xizmatlari hajmi **2524,1** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022- yilning** mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **103,9 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **21,0 %** ni tashkil etdi.




**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**2023- yilning 1- sentabr** holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **966** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **2,8 %** ini tashkil etdi. Ulardan **951** birlik (**98,4 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

## Transport xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-avgust)



- avtotransport xizmatlari
- pochta va kurerlik xizmatlari
- omborxonalar va yordamchi transport xizmatlari

# Hududlar kesimida transport ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-avgust)



	mlrd. so'mda	% da
Qashqadaryo vil.	2524,1	103,9
Qarshi sh.	338,0	107,6
Shahrisabz sh.	133,0	104,3
G'uzor	122,7	107,2
Dehqonobod	83,2	105,1
Qamashi	162,3	103,2
Qarshi	247,6	102,7
Koson	201,2	104,2
Kitob	176,0	103,8
Mirishkor	202,4	103,5
Muborak	197,5	88,3
Nishon	134,3	102,7
Kasbi	110,0	102,9
Ko'kdala	47,0	100,8
Chiroqchi	113,5	110,8
Shahrisabz	123,9	104,4
Yakkabog'	131,6	119,4

**2022- yilning yanvar-avgust** oylariga nisbatan Qarshi shahrida transport xizmatlari hajmi **58,4** mlrd. so'mga oshib, hisobot davrida **338,0** mlrd. so'mni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-avgust** oylariga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **107,6** % ni tashkil etgan.

Muborak tumanida ushbu ko'rsatkich **1,6** mlrd. so'mga kamaydi. Bunda mazkur xizmatlarning o'sish sur'ati **88,3** % ni tashkil etdi.






# Savdo xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-avgust)

2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 875,7 mlrd. soʻmga oshib, 3 731,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022-yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turi boʻyicha oʻsish surʻati 103,9 % ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, yaʼni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.




2023- yilning 1- sentabr holatiga koʻra xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band boʻlganlarning ulushi 30,7 % yoki 10434 birlik bilan ustunlik qiladi, shundan 99,7 foizi (10399 birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



# Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-avgust)




**2023- yilning yanvar-avgust** oylarida aloqa va axborot-lashtirish xizmatlari hajmi **612,7** mlrd. soʻmdan iborat boʻlib, **oʻtgan yilning mos davriga** nisbatan oʻsish surʻati **122,5 %** ni tashkil etdi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat koʻrsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yigʻindisi sifatida aniqlanadi.

**2023- yilning 1- sentabr** holatiga koʻra “Axborot va aloqa” faoliyati bilan shugʻullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **403** birlikka yetdi, shundan **397** birligi (umumiy sonining **98,5 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022- y. (2023- yil yanvar-avgust, % da) 2023- y.




## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-avgust)

Hududlar	Hajmi, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
<b>Qashqadaryo vil.</b>	<b>612,7</b>	<b>100,0</b>	<b>122,5</b>
Qarshi sh.	92,0	15,0	148,3
Shahrisabz sh.	32,5	5,3	108,4
Gʻuzor	34,5	5,6	120,5
Dehqonobod	26,0	4,3	122,3
Qamashi	43,4	7,1	119,2
Qarshi	43,1	7,0	125,6
Koson	47,2	7,7	133,3
Kitob	49,5	8,1	115,2
Mirishkor	23,6	3,9	124,9
Muborak	18,7	3,1	131,1
Nishon	28,0	4,6	119,0
Kasbi	31,5	5,1	115,4
Koʻkdala	23,6	3,8	122,5
Chiroqchi	41,9	6,8	116,1
Shahrisabz	33,9	5,5	108,1
Yakkabogʻ	43,5	7,1	112,4

**2022- yilning yanvar-avgust** oylariga nisbatan Qarshi shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **30,7** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **92,0** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **15,0%** ni tashkil etdi.

Koʻkdala tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **23,6** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-avgust)



**2023- yil yanvar-avgust** oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **498,8** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **141,5 %** ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **65,4 %**ni tashkil etdi.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.


Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Ta'lim sohasi xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-avgust oylaridagi** ulushi **4,1 %** ni tashkil etdi.  
**Ma'lumot uchun:** **2022/2023-** o'quv yili boshidagi oliy ta'lim muassasalari soni **9** birlikni tashkil etdi.



# Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-avgust)



**2023- yil yanvar-avgust** oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **175,4** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,5** % ini tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.


**2023- yilning 1- sentabr** holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **793** birlikni tashkil etdi, shundan **654** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-avgust, mlrd. so'mda)

<b>Qashqadaryo vil.</b>	<b>175,4</b>	Kitob	20,6
Qarshi sh.	94,4	Mirishkor	2,7
Shahrisabz sh.	13,1	Muborak	7,6
G'uzor	1,7	Nishon	1,8
Dehqonobod	1,0	Kasbi	3,0
Qamashi	6,6	Ko'kdala	0,6
Qarshi	2,3	Chiroqchi	1,8
Koson	2,2	Shahrisabz	10,6
		Yakkabog'	5,3

# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-avgust)

2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **201,3** mlrd. so'mga oshib, **367,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.




**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**2023- yilning 1- sentabr** holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1671** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1659** birligi (umumiy sonining **99,3** %) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.


**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**  
(2023- yil yanvar-avgust)



**Yashash bo'yicha xizmatlar**

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar**

# Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-avgust)




**2023- yil yanvar-avgust** oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **302,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,5 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-avgust** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,4 %** ni tashkil etgan.

■ Hajmi, mlrd. so'mda    ■ O'sish sur'ati, % da

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.


## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi



# Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-avgust)

**2023- yilning yanvar-avgust** oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **158,0** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **1,3 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-avgust** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **113,4 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-avgust, mlrd. so'mda)


Qarshi sh	109,3	Kitob	6,2
Shahrisabz sh	15,5	Muborak	0,1
G'uzor	1,7	Nishon	1,0
Qamashi	6,5	Kasbi	0,8
Qarshi	5,4	Ko'kdala	0,4
Koson	6,5	Chiroqchi	1,3
		Shahrisabz	2,3
		Yakkabog'	1,0

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.



# Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar


(2019-2023-yillar yanvar-avgust)



2023- yilning yanvar-avgust oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 413,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,0 %ni tashkil etgan.



## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-avgust)




**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

# Ijara xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-avgust)

**2019- yilning yanvar-avgustiga** nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **99,8** mlrd. so'mga oshib, **256,9** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **2,1** % ni tashkil etdi.



**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-avgust** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **82,6** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

